



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SOCIAL COMPETENCE OF CHILDREN AGED 6-7**

**Tanrbergenova Dildora Mubarak qizi**

Doctoral Student, Theory of Pedagogy and History of Pedagogical Thought Nukus  
State Pedagogical Institute

### **Abstract**

This article is dedicated to the development of social competence in children aged 6-7 during the transition period from preschool to primary education. In the context of modern globalization, fostering social adaptation, communication, and cooperation skills in children is considered one of the most pressing tasks of the education system. In the course of the study, methods of systematic analysis, pedagogical observation, and psychodiagnostic testing were used to determine the level of social adaptation of children. Additionally, specially developed game technologies for correcting relationships within a children's team were tested in practice. The results showed that purposeful pedagogical conditions significantly increase the indicators of emotional intelligence and social responsibility in children. It has been proven that the psychological and pedagogical support system ensures the child's successful integration into a new social environment. The conclusion proposes methodological recommendations for improving the social competence of 6-7-year-old children.

**Keywords:** children aged 6-7, social competence, social adaptation, psychological and pedagogical conditions, communication skills, emotional intelligence, school preparation, game technologies, personality formation.

**6-7 YOSHLI BOLALARNING IJTIMOYIY KOMPETENTLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK SHAROITLARI**



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**Tanrbergenova Dildora Mubarak qizi**

Nukus Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta’limotlar  
tarixi doktaranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqola maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich ta’limga o‘tish davridagi 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Zamonaviy globallashuv sharoitida bolalarda ijtimoiy moslashuv, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, pedagogik kuzatuv hamda bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlovchi psixodiagnostik test metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, bolalar jamoasida o‘zaro munosabatlarni korreksiyalovchi maxsus ishlab chiqilgan o‘yin texnologiyalari amaliyotda sinaldi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, maqsadli yo‘naltirilgan pedagogik sharoitlar bolalarda emotsional intellekt va ijtimoiy mas’uliyat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi bolaning yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlashi isbotlandi. Xulosada 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** 6-7 yoshli bolalar, ijtimoiy kompetentlik, ijtimoiy moslashuv, psixologik-pedagogik sharoitlar, muloqot ko‘nikmalari, emotsional intellekt, maktabga tayyorgarlik, o‘yin texnologiyalari, shaxs shakllanishi.

**Kirish**

Zamonaviy pedagogik psixologiyada 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish ularning kelgusi maktab ta’limi va shaxsiy rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlarining asosi sifatida qaraladi. Zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi - bolalarni ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning ongida g‘oyaviy bo‘shliq



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

bo‘lmasligini ta‘minlash hamda ijtimoiy-siyosiy jihatdan yetuk bo‘lgan fuqarolarini tarbiyalashdir. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish rivojlanayotgan ta‘limning asosiy dolzarbligi hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya fanlari “ijtimoiy kompetensiya” tushunchasining dolzarbligini belgilab bermoqda; ijtimoiy kompetensiya shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy bilimlar, muloqot ko‘nikmalari, axloqiy qarashlar, ijtimoiy tajriba va psixologik xususiyatlarning yaxlit tizimini ifodalovchi murakkab integrativ sifat bo‘lib, u shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli 6-7 yoshli bolalarda ijtimoiylashuvning dastlabki bosqichlarini yoshga mos tarzda asta sekin singdirib borish kerak. Ularga ijtimoiy kompetensiyalarni ertaklar, o‘yinlar, syujetli ro‘lli ko‘rinishlar, metodlar yordamida ko‘rsatib, o‘rgatish kerak. Bu jarayon ongli va tizimli pedagogik jarayonni talab etadi; bularning nazariy ildizlari axloqiy tarbiya, milliy qadiriylatlarga hurmat, kattalarga hurmat, kichiklar izzat, o‘zini anglash g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu o‘zbek pedagogi tafakkurida shaxs komolotining asosiy mezonlari sifatida talqin etilgan, xususan, Abdulla Avloniy insonni jamiyatga foydali, mas‘uliyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surib, bugungi kunda ijtimoiy kompetensiya deb ataladigan sifatlarning axloqiy-pedagogik poydevorini yaratganligini ko‘rish mumkin (1).

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va o‘doh-ahloq qoidalarigarioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalarboshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

tobora ko‘proq o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radilar va o‘z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan uyg‘unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo‘llab-quvvatlay oladilar(7).

6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlashning psixologik-pedagogik jihatlari respublikamiz olimlaridan R.A.Mavlonova, Sh.A.Sodiqova, M.G.Davletshin, E.G‘oziev, Z.T.Nishanova, Sh.R.Barotov, N.M.Egamberdieva, D.R.Babaeva va H.M.Tojiboeva kabi mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ishlarida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvi masalalari yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, M.I.Lisina, Ye.O.Smirnova, G.A.Sukkerman va V.A.Petrovskiylarning izlanishlarida bolalik davridagi yetakchi faoliyat turi sifatida o‘yinning ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati hamda bolaning tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Xorijlik olimlardan J.Piaje, E.Erikson, A.Bandura, D.Goleman, H.Gardner, R.Selman va M.Hoffmanlarning tadqiqotlarida bolalardagi kognitiv rivojlanish bilan ijtimoiy xulq-atvorning o‘zaro bog‘liqligi, emotsional intellekt hamda ijtimoiy kognitsiya (ijtimoiy anglash) darajalarining takomillashishi nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlar 6-7 yoshli bolalarda ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalarni tarkib toptirishning fundamental asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi 6-7 yoshli bolalarda ijtimoiy kompetentlikni takomillashtirishning samarali psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqishdan iborat.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**Material va metodlar**

Mazkur tadqiqot 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash va ularning shaxsiy rivojlanishidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot konseptual-tahliliy va tizimli yondashuvga asoslanadi; tadqiqot materiallari sifatida maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limning uzviyligi, bolalar psixologiyasi, ijtimoiylashuv jarayonlari hamda muloqot kompetensiyasini yorituvchi fundamental ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va xalqaro metodik manbalar tanlab olindi.(2)

Metodologik asos sifatida faoliyatli yondashuv va inklyuziv ta’lim prinsiplari tanlandi, chunki mazkur yondashuvlar 6-7 yoshli bolani ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy kompetentligini aynan o‘yin va o‘quv faoliyati uyg‘unligida tushuntirishga imkon beradi (3). Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish metodi yordamida "ijtimoiy kompetentlik" tushunchasining tarkibiy qismlari (kognitiv, emotsional, motivatsion va xulq-atvor) 6-7 yoshli bolalar rivojlanishi kontekstida aniqlashtirildi(4). Qiyosiy tahlil metodi orqali turli pedagogik maktablarning bolalar ijtimoiylashuviga oid qarashlari solishtirilib, maktabga tayyorgarlik davridagi ijtimoiy ko‘nikmalarning differensial xususiyatlari ochib berildi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari (oilaviy muhit, tengdoshlar jamoasi, pedagogik qo‘llab-quvvatlash) yagona nazariy modelga keltirildi (5). Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy kompetentlik faqat individual sifat emas, balki ta’lim muhitidagi interfaol munosabatlar va maxsus ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar natijasida shakllanuvchi murakkab hodisa sifatida talqin qilindi. Gumanistik pedagogika va rivojlantiruvchi ta’lim nazariyalariga tayangan holda olib borilgan ushbu



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi hamda 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini ta’lim tizimining strategik natijasi sifatida talqin etish imkonini berdi(6)

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 6-7 yoshli bolalarda ijtimoiy kompetentlik shaxs rivojining muhim integrativ natijasi bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, munosabat va shaxsiy sifatlarning yagona tizimda uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Pedagogik nuqtai nazardan, ijtimoiy kompetentlik maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich ta’limga o‘tish jarayonida bolaning ijtimoiy tajribani egallashi, tengdoshlar jamoasida ishlash, muloqot qilish va dastlabki ijtimoiy mas’uliyatni his etishi orqali rivojlanadi; bu esa ta’lim muassasasini nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin etish imkonini beradi.

Psixologik jihatdan esa, 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligi ularning empatiya, ijtimoiy idrok, o‘z-o‘zini boshqarish, hissiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuv kabi psixik jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bolaning maktab muhitiga moslashuvida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi, shu sababli ta’lim jarayonida nafaqat intellektual (kognitiv), balki hissiy-irodaviy rivojlanishga ham alohida e’tibor qaratilishi zarur [5].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi bevosita ta’lim muhitining ijtimoiy-psixologik sifati bilan bog‘liqdir. Agar o‘quv muhitida ochiqlik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va adolat tamoyillari ustuvor bo‘lsa, 6-7 yoshli bolada ijtimoiy faollik, o‘ziga ishonch va atrofida gilar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati jadal rivojlanadi; aksincha, avtoritar yoki yopiq muhit ijtimoiy kompetentlikning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda interfaol metodlardan, xususan, rolli o‘yinlar va jamoaviy faoliyat



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

shakllaridan foydalanish ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy kompetentlik faqat bolaning individual xususiyati emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanuvchi sifat bo‘lib, bu jarayonda pedagogning shaxsiy namunasi, uning muloqot uslubi va tarbiyaviy faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi yoki tarbiyachi ijtimoiy kompetentlikning bevosita tashuvchisi sifatida bolalarga kuchli ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy tadqiqotlar natijalari ham 6-7 yoshli bolalardagi ijtimoiy kompetentlikni zamonaviy ta’limning asosiy natijalaridan biri sifatida baholab, uni shaxsning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida e’tirof etadi [8], bu esa mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

6-7 yoshli bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik sharoitlari

**1. Subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan muloqot muhiti**

Pedagog va bola o‘rtasidagi an’anaviy "buyruq-ijro" tizimidan voz kechib, teng huquqli hamkorlik muhitini yaratish.

Psixologik asosi: Bolaning o‘z shaxsini anglashi va o‘z fikrini bildirishdagi qo‘rquvlarini bartaraf etish.

Amaliy ko‘rinishi: Bolaning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, xato qilish huquqini tan olish va ijtimoiy yutuqlarini rag‘batlantirish.

**2. O‘yin va o‘quv faoliyatining integratsiyalashgan modeli**

Ushbu yoshdagi bolalar uchun o‘yin hali ham yetakchi faoliyat turi bo‘lib qolayotganini hisobga olib, ta’lim jarayoniga rolli va situatsion o‘yinlarni tizimli kiritish.



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Shart-sharoit: "Do'kon", "Shifoxona", "Maktab" kabi rolli o'yinlar orqali bolani turli ijtimoiy rollarga (rahbar, ijrochi, yordamchi) kirishishga o'rgatish.

Natija: Bola murakkab ijtimoiy munosabatlarni (kelishuv, murosaga kelish, navbat kutish) tabiiy ravishda o'zlashtiradi.

3. Emotsional intellektni (EQ) rivojlantirishning maxsus treninglari.

Bolaning o'z his-tuyg'ularini boshqarishi va atrofidagilarning emotsiyalarini to'g'ri idrok etishi (empatiya).

Pedagogik shart: Mashg'ulotlarda "Hissiyotlar xaritasi", "Men bugun xursandman/xafaman, chunki..." kabi refleksiya metodlaridan foydalanish. Ahamiyati: Ijtimoiy nizolarning oldini olish va guruhda ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish.

4. Jamoaviy hamkorlik loyihalarini tashkil etish

Individual raqobatdan ko'ra, jamoaviy muvaffaqiyatga yo'naltirilgan topshiriqlarni ko'paytirish.

Metod: "Kichik guruhlarda ishlash", "Jamoaviy rasm chizish", "Birgalikda ertak to'qish".

Natija: Bolada ijtimoiy mas'uliyat, o'zaro yordam va umumiy maqsad yo'lida birlashish ko'nikmasi tarkib topadi.

5. Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligining klasterli tizimi

Bolaning ijtimoiy kompetentligi faqat bog'chada yoki maktabda emas, balki oiladagi munosabatlar zanjirida mustahkamlanadi.

Psixologik shart: Ota-onalar uchun "Bolamni ijtimoiy hayotga qanday tayyorlayman?" mavzusida seminarlar va konsultatsiyalar o'tkazish.

Maqsad: Ta'lim muassasasidagi ijtimoiy talablar va oiladagi tarbiya uslublari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish.

6. Muammoli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Bolalarga tayyor yechimlarni bermasdan, ularni "Ijtimoiy dilemma" qarshisiga qo'yish. Misol: "Agar o'rtog'ing senga o'yinchoq bermasa, nima qilgan bo'larding?" yoki "Navbatda oxirida qolib ketsang-chi?".

Natija: Bolaning ijtimoiy tafakkuri va muammolarni konstruktiv hal qilish qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy kompetentlik shunchaki bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki shaxs rivojining muhim integrativ natijasi bo'lib, u bilim, munosabat va shaxsiy sifatlarning uyg'unligida shakllanadi. U bolaning maktab muhitiga moslashuvida jiddiy o'rin tutadi. 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning psixologik-pedagogik sharoitlarini o'rganish natijasi shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy kompetensiya tasodifiy ravishda yuzaga kelmaydi, balki ta'lim jarayonida yaratilgan ijtimoiy muhit, pedagogik bilim va o'yinlar, tarbiyaviy ta'sirlar, kattalar bolalarga namuna bo'lish orqali rivojlanadi. Shuning uchun ijtimoiy kompetensiyani takomillashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, interfaol metodlardan foydalanish, jamoaviy faoliyatni kengaytish va tarbiyachilarning tajribasini, bilimdonligini kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalar uchun o'yin hali ham yetakchi faoliyat turi bo'lib qolayotganligi sababli, ta'lim jarayoniga rolli va situatsion o'yinlarni tizimli kiritish eng samarali sharoitlardan biri hisoblanadi. Bu orqali bola murakkab ijtimoiy munosabatlarni tabiiy ravishda o'zlashtirad Ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi bevosita ta'lim muhitining sifatiga bog'liq. Ochiqlik, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillari ustuvor bo'lgan muhit bolada ijtimoiy faollik va o'ziga ishonchni rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida nafaqat intellektual, balki hissiy-irodaviy rivojlanishga, xususan emotsional intellektni (EQ) yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish zarurro Empatiya va refleksiya metodlari guruhda ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishga xizmat qiladi. Bolaning ijtimoiy kompetentligini



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

faqat ta’lim muassasasi doirasida cheklab bo‘lmaydi; u oiladagi munosabatlar zanjirida mustahkamlanadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim va oila hamkorligining klasterli tizimini yo‘lga qo‘yish, ota-onalar bilan tizimli seminarlar o‘tkazish muhim strategik vazifadir.

Umuman olganda, maqsadli yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik sharoitlar bolalarda emotsional intellekt va ijtimoiy mas’uliyat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur tadqiqotda ilgari surilgan metodik tavsiyalar bolaning yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2018. – 176 b.(Shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya va jamiyatga foydali bo‘lish g‘oyalari: 38–64-betlar).
2. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. — М.: Смысл, Эксмо, 2005. — 512 с.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Смысл, Академия, 2005. — 352 с.
4. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2013. – 288 b.
5. Egamberdieva N. M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
6. Nishanova Z. T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2014. – 340 b.
7. “Ilm yo‘li” variativ dasturi.- Toshkent – 2022. 15b
8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. — New York: Bantam Books, 2005.